

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“MOLIVAVIY TAHLIL VA AUDIT” KAFEDRASI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 658.1:33M (575.1)**

**ABDUXAMIDOV ABDURAXMON ABDULATIF O‘G‘LI**

**FOYDANING SHAKLLANISHI VA MAHSULOT TANNARXINI  
KALKULYATSIYA QILISH USHLBLARI O‘ZARO BOG‘LIQLIGINING  
TAHLILI**

**70410102 - «Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)» mutaxassisligi bo‘yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
DSc., dots. Maxmudov A.N.**

**Toshkent-2023**

Magistrlik dissertatsiyasi «Moliyaviy tahlil va audit kafedrası»da dastlabki  
himoyadan o'tgan. 1-sonli bayonnoma. «25» aprel 2023 yil

Kafedra mudiri:

DSc., professor Xajimuratov N.Sh.




imzo

23.05.2023-y

sana

Ilmiy rahbar: DSc., dots Mahmudov A.N.




imzo

18.05.2023-y

sana

Magistr: Abduhamidov A.A.



imzo

18.05.2023-y

sana

Dissertatsiya “Moliya va buxgalteriya hisobi” fakultetida 2023-yil

«23» May

№ MUA-01/13 raqami bilan ro'yxatga olindi.

## ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida korxonalarda foydaning shakllanishi va maxsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullarining bir biriga o'zaro bog'liqligini tahlili hamda ularni takomillashtirish o'rganilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda foydani ko'paytirish hamda xarajatlarni kamaytirish bo'yicha mahsulot tannarxini aniqlash usullarini takomillashtirish masalalari bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** foyda, ishlab chiqarish xarajatlari, maxsulot tannarxi, kayzen – costing, target-costing, goal-costing, moliyaviy natija, daromadlarni boshqarish, kalkulyatsiya.

## ABSTRACT

In this dissertation, the analysis of the interdependence of the methods of profit formation and product cost calculation in enterprises and their improvement was studied, as well as the methods of determining the product cost to increase profit and reduce costs in enterprises operating in the Republic of Uzbekistan. practical proposals and recommendations for the analysis of problems related to improvement issues have been developed.

**Key words:** profit, production costs, product cost, kaizen-costing, target-costing, goal-costing, financial result, income management, calculation.

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
<b>I BOB. KIRISH .....</b>	<b>7</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	7
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari .....	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	10
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti .....	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati .....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi .....	11
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI .....</b>	<b>13</b>
2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari .....	14
2.2. Tadqiqot gipotezasi .....	15
<b>III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI .....</b>	<b>20</b>
3.1. Ma'lumotlar manbalari .....	20
3.2. Tadqiqot dizayni .....	20
3.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar .....	21
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar .....	21
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi ...	21
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar .....	22
<b>IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR .....</b>	<b>23</b>
4.1. Sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida xarajatlarning iqtisodiy mohiyati va ularning tahlilidagi nazariy muammolari.....	23
4.2. Sanoat korxonalarida xarajatlar tahlilini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari.....	36
4.3. Korxonada xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda IS-8.2 dasturini avtomatlashtirish tizimini takomillashtirish...	42
4.4. Xo'jalik sub'ektlarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashning xalqaro tajribalardan foydalanish yo'llari.....	47
<b>V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR .....</b>	<b>74</b>
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari .....	74
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar .....	74
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar .....	75
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>77</b>

## I BOB. KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan yengil sanoat korxonalariga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. "Zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish asosida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravar va charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni 3 baravarga ko'paytirish"<sup>1</sup> vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, respublikamiz yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishning ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, foydani oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi tanlab olingan. Shu maqsadda yengil sanoat korxonalarini faoliyatini modernizatsiyalash va mahsulotlar assortimentini diversifikatsiyalash maqsadlari uchun hisob va audit tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmokda. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash mamlakatimizdagi yengil sanoat, xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini oshirishni taqozo etadi. Yengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishni ilmiy asoslarini yaratish talab etilmoqda. Shu jihatdan, xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizdagi yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-53- son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 5 maydagi PF-5989-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>